

PSIXOLOGIK TASHXIS QILISHDA INKLYUZIV TA’LIMDA AQLI ZAIF O‘QUVCHILARNI O‘ZIGA XIZMAT QILISHGA O‘RGATISH

Atoyeva Sanobar Sadirovna

*Buxoro viloyati Romitan tumani alohida ta'limga ehtiyojlari bo'lgan aqli zaif bolalar
uchun ixtisoslashtirilgan 26-sonli maktab-internati o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolaning mazmuni shundan iboratki Inklyuziv ta'limda aqli zaif o'quvchilar ma'lum bir holatda faol, ijodiy harakat qilishi, mustaqil faoliyat ko'rsatishni eplay olmaydi. Shuning uchun ham ulami o'z-o'ziga xizmat qilish, mehnat qilishga, mustaqillikka o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ulaming barcha analizatorlariga ta'sir etgan holda ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ularni ko'proq qiziqtirish, ishontirish, sezish, his etishga o'rgatish, nutqini rivojlantirish, umumiy motorikasini rivojlantirishga e'tibor qaratiladi.*

Kalit so'zlar: *Individual, psixologiya, psixika, pedagogika, korreksiya, ruhiyat, idrok, tafakkur, profilaktika, Neyrodinamik jarayonlar, vegetativ distoniya, aqliy zaiflik, tuzatish tibbiy-pedagogik, rivojlantirish.*

Annotation: *The content of this article is that mentally retarded students cannot be active, creative and independent in a certain situation. That is why it is important to teach students to serve themselves, to work, and to be independent. In this case, it would be appropriate to organize work affecting all analyzers of the system. Attention is paid to making them more interested, convincing, teaching them to feel, to develop their speech, and to develop their general motor skills.*

Keywords: *Individual, psychology, psyche, pedagogy, correction, psyche, perception, thinking, prevention, Neurodynamic processes, vegetative dystonia, mental retardation, medical-pedagogical correction, development.*

Аннотация: *Содержание данной статьи заключается в том, что умственно отсталые школьники не могут быть активными, творческими и самостоятельными в определенной ситуации. Вот почему важно научить студентов служить себе, работать и быть независимыми. В этом случае целесообразно организовать работу, затрагивающую все анализаторы системы. Уделяется внимание тому, чтобы заинтересовать их, убедить, научить чувствовать, развить речь, развить общую моторику.*

Ключевые слова: *Личность, психология, психика, педагогика, коррекция, психика, восприятие, мышление, профилактика, нейродинамические процессы, вегето-сосудистая дистония, умственная отсталость, медико-педагогическая коррекция, развитие.*

Maxsus maktabda inklyuziv ta'limda aqli zaif o'quvchilar o'z-o'ziga xizmat qilish malakalari yaxshi shakllanmagan. O'z faoliyatini mas'ullik, ijodiy tarzda emas, balki oddiy yuzaki holatda yuritadi.

Inklyuziv ta’limda aqli zaif o‘quvchilar ma’lum bir holatda faol, ijodiy harakat qilishi, mustaqil faoliyat ko‘rsatishni eplay olmaydi. Shuning uchun ham ulami o‘z-o‘ziga xizmat qilish, mehnat qilishga, mustaqillikka o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ulaming barcha analizatorlariga ta’sir etgan holda ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ularni ko‘proq qiziqtirish, ishontirish, sezish, his etishga o‘rgatish, nutqini rivojlantirish, umumiy motorikasini rivojlantirishga e’tibor qaratiladi..

Maxsus pedagogikaning maxsus markazida turadigan manba nuqsonning o‘zi emas, balki u bilan bog‘langan buzilgan ruhiy holatlardir. Shu bilan birga biz aqli zaif deb bu holatning turg‘unligini ham tushunamiz. Mana shu mezonning bor yoki yo‘qligiga qarab aqli zaiflikning boshqa unga o‘xshash turlardan farqlashimiz lozim. Aqli zaiflikning asosiy belgilari:

- a) bosh miyada organik buzilishning mavjudligi;
- b) bilish faoliyatlarining umumiy, chuqur buzilganligi;
- v) bilish faoliyatlari buzilganligining turg‘un harakterdaligi.

Inklyuziv ta’limda aqli zaif o‘quvchilar guruhiga quyidagi o‘quvchilar kirmaydi:

- a) aqliy rivojlanmaganlik bosh miyaning organik buzilishlari bilan bog‘liq bo‘lmagan pedagogik qarovsizlar;
- b) ruhiy rivojlanishi orqada qolgan o‘quvchilar;
- v) aqliy jihatdan saqlangan bo‘lib, chuqur nutq kamchiliklari bo‘lgan o‘quvchilar;

Amaliyotda ba’zan bosh miyasi zararlangan o‘quvchilarni aqli zaiflar o‘quvchilar qatoriga qo‘sha olmaymiz. Bunday hollarda bosh miya zararlanishlari bilish faoliyatlarining buzilishiga olib kelmaydi.

Hozirgi davrdagi defektologlarimiz biologik omillarga katta e’tibor beribgina qolmay, balki ta’lim-tarbiya, atrof-muhitga ham alohida e’tibor beradilar. Maktabgacha tarbiya muassaslarida (korreksiyalovchi) tuzatuvchi tarbiyalovchi ta’lim ta’sirida inklyuziv ta’limda aqli zaif o‘quvchilar ruhiy jarayonlarida juda katta siljishlar yuz beradi.

Hozirgi vaqtda maktabgacha tarbiya muassasalarida asosana qli zaiflikning yengil darajasi tashhisi bo‘lgan o‘quvchilar ta’lim oladilar.

Neyrodinamik jarayonlari buzilgan inklyuziv ta’limda aqli zaif o‘quvchilarda aqliy nuqson qo‘zg‘aluvchanlik yoki tormozlanuvchanlik bilan birga keladi. Aqliy faoliyat diqqatning tarqoqligi, impulsivligi, harakat tizimlarning buzilganligi natijasida yanada ko‘proq buziladi,

Tez-tez bo‘lib turadigan bosh og‘rig‘i, vegetativ distoniya, nevroz harakterdagi buzilishlar, aqliy faoliyat jarayonlariga o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazadi. Bu toifaga apatik-dinamik buzilishlari bo‘lgan oligofreniklarni ham kiritish mumkin. Xulqi psixopat mazmun kasb etuvchi oligofrenlarda jinsiy intilishlarning buzilishi, daydib yurishga moyillik, o‘g‘rilikka ruju qo‘yish holatlari ko‘rinib turadi. Bunday nuqsonlar asosan meningoensefalit, meningit, bosh miyasi jarohat olgan o‘quvchilarga xosdir.

Inklyuziv ta’limda aqli zaif o‘quvchilarning nuqsonli taraqqiyoti fakatgina psixik jarayonlar kechishining uziga xosligi bilangina chegaralanib kolmasdan, balki ular faoliyatlari xam normal o‘quvchilar faoliyatlaridan keskin fark qiladi. Inklyuziv ta’limda

aqli zaif o‘quvchilar faoliyatining uziga xosligi maqsad va xarakatlarning munosabatida, faoliyat dinamikasida xamda motivlarida kuzga tashlanadi. Inklyuziv ta’limda aqli zaif o‘quvchilar kiyin va murakkab vazifalarni bajarish vaktlarida barcha talab va ma’lumotlarni xisobga olmaydi. Natijada bajarilayotgan vazifa boshka, birmuncha yengilrok, osonrok vazifalar bilan almashadi. Inklyuziv ta’limda aqli zaif o‘quvchilar normal o‘quvchilardan farkli ravishda faoliyat jarayonlarida uzgacha idrok qiladilar, eslab koladilar va fikrlaydilar. Shu bilan birga boshka maqsad va motivlarga amal qiladilar. Oligofren o‘quvchilarning faoliyatlari maxsus tuzilishga egaki, uni maxsus karash va taxlil etish kerak. Inklyuziv ta’limda aqli zaif o‘quvchilar faoliyatida uning shaxsiy sifatleri kuzga tashlanadi. Ta’lim-tarbiya jarayonlarida inklyuziv ta’limda aqli zaif o‘quvchilarning shaxsini shaqllantirish uchun, uning faoliyat xususiyatlerini bilmok kerak. Chunki psixika faoliyatda kuzga tashlanibgina kolmasdan, balki faoliyat jarayonida shaqllanib xam boradi. Shuning uchun ta’lim-tarbiyada inklyuziv ta’limda aqli zaif o‘quvchilar faoliyatini shunday tashkil kilish kerakki, ular psixikasining samarali rivojlanishiga imkon yaratsin

Inklyuziv ta’limda aqli zaif o‘quvchilarning faoliyatlarida maqsadga muvofiqlikning buzilganligi, oldingi tajribalarni kullashdagi kiyinchiliklar, motivlarning notugriligi kabi nuqsonlarni kurish mumkin. Ma’lumki, faoliyat deganda, inson shaxsi faolligining namoyon bulishi tushuniladi. Faoliyatda inklyuziv ta’limda aqli zaif o‘quvchi shaxsi namoyon bulishi bilan birga rivojlanib xam boradi. Demak, faoliyat bilan o‘quvchi psixikasi orasida juda murakkab uzaro aloka mavjud. Bir tomondan psixika turli faoliyat jarayonlarida takomillashib borsa, ikkinchi tomondan psixika faoliyatni boshkarib xam boradi. Sezgi va idrokda muskullar, fikrlash jarayonlarida ikkinchi signal tizimi boshkariladi. Faoliyat jarayonlarida inklyuziv ta’limda aqli zaif o‘quvchilarning uz imkoniyatlariga tugri baxo berishleri juda katta axamiyatga ega. Agarda ma’lum bir shaxs uz imkoniyatlariga yukori baxo bersa, shaxs va jamoa orasida uziga xos kiyinchiliklar yuzaga keladi. Inklyuziv ta’limda aqli zaif o‘quvchilar faoliyatlariga salbiy ta’sir etuvchi omillarga: sezgi va idrokning zaif differentsirlashganligi, tafakkurning yaxshi rivojlanmaganligi, motivlarning buzilganligi, o‘z-o‘zlariga baxo berbitiruv malakaviy ishining notugriligi kiradi.

Inklyuziv ta’limda maktab o‘quvchilarining barcha faoliyat turlarida kuyidagi kamchiliklar uchrab turar ekan.

1. Ma’lumki, xar kanday faoliyat ma’lum maqsad asosida amalga oshiriladi. Maqsadsiz faoliyatning bulishi bizningcha mumkin emas. Demak, inklyuziv ta’limda aqli zaif o‘quvchilar faoliyatida maqsadga karatilganlik keskin buzilgan bo’ladi.

2. Rivojlanish, ta’lim-tarbiya davomida o‘quvchilarda bilimlar, kunikma va malakalar, tajribalar yigilib boriladi. Inklyuziv ta’limda aqli zaif o‘quvchilar uzlarida bulgan tajribalarni yangi o‘zlashtirilayotgan, egallanayotgan bilimlarga tadbik eta olmaydi.

3. Inklyuziv ta’limda aqli zaif o‘quvchilardagi motivlarning torligi, uz faoliyatlerini rejalashtira olmaslikleri, faoliyatlarining natijalarini kura olmaslikleri kuzga tashlanadi.

4. Inklyuziv ta’limda aqli zaif o‘quvchilarda suz boyligi va lugat tarkibining kambagalligi okibatida o‘qituvchi va tarbiyachilarning ogzaki tushuntirishlerini tushunmaslik, ular dikkatining tarkokligi, birinchi va ikkinchi signal tizimleri orasidagi

nomuvofiklik asosida kelib chikadigan faoliyat kamchiliklari uchraydi. Faoliyat jarayonlarida inklyuziv ta’limda aqli zaif o‘quvchilarda turli ukuv va mexnat malakalari shaqllanib boradi.

Inklyuziv ta’limda aqli zaif o‘quvchilar bosh miyasining organik buzilishlari natijasida malakalar birmuncha kiyin shaqllanadi. Psixikaning rivojlanmaganligi uz navbatida turli malakalarning shaqllanishiga tuskinlik qiladi. Masalan: yozish malakalarining shaqllanishiga kuyidagi nuqsonlar tuskinlik qiladi. Inklyuziv ta’limda aqli zaif o‘quvchilar panja, barmoklaridagi mayda muskullarning yaxshi rivojlanmaganligi, ayrim sezgi a’zolarining yetarli shaqllanmaganligi, fonematik eshitbitiruv malakaviy ishining meyordan past ekanligi, tasnif-taxlil faoliyatining pastligi xamda umuman xarakat tizimining nuqsonlari kiradi. Inklyuziv ta’limda aqli zaif o‘quvchilarda fakatgina yozish malakalari zararlanib kolmasdan, boshka qator malakalar xam kiyin amalga oshiriladi. Faoliyat, faollik fakatgina insonlarga emas, turli xayvonlarga xam xosdir. Ammo, bu faoliyatlar orasida juda katta fark mavjud. Xayvonlar faoliyati bevosita tevarak- atrofdagi muxit bilan belgilanadi. Xayvonlar uzining faoliyati, faolligi tufayli atrof- muxitga buysinib, muvofiklashib yashaydi. Odamning faoliyati esa, kichik yoshligidanok butun insoniyat tajribasi bilan belgilana boshlaydi. Kishilar uz faoliyatlari orkali tevarak-atrofdagi muxitni uz manfaatlariga buysundiradi, uni uzgartirib, extiyojlariga moslashtiradi.

Psixologiya fanining zaruriy nizomlaridan biri – ong va faoliyatning birligidir. Psixik jarayon va xolatlar faoliyatdan tashkarida yuz bermaydi.

Inklyuziv ta’limda aqli zaif o‘quvchilarning nuqsonli taraqqiyoti fakatgina psixik jarayonlar kechishining uziga xosligi bilangina chegaralanib kolmasdan, balki ular faoliyatlari xam normal o‘quvchilar faoliyatlaridan keskin fark qiladi.

Inklyuziv ta’limda aqli zaif o‘quvchilar faoliyatining uziga xosligi maqsad va xarakatlarning munosabatida, faoliyat dinamikasida xamda motivlarida kuzga tashlanadi.

Inklyuziv ta’limda aqli zaif o‘quvchilar kiyin va murakkab vazifalarni bajarish vaktlarida barcha talab va ma’lumotlarni xisobga olmaydi. Natijada bajarilayotgan vazifa boshka, birmuncha yengilrok, osonrok vazifalar bilan almashadi.

Inklyuziv ta’limda aqli zaif o‘quvchilar normal o‘quvchilardan farkli ravishda faoliyat jarayonlarida uzgacha idrok qiladilar, eslab koladilar va fikrlaydilar.

Oligofren o‘quvchilarning faoliyatlari maxsus tuzilishga egaki, uni maxsus karash va taxlil etish kerak.

Inklyuziv ta’limda aqli zaif o‘quvchilar faoliyatida uning shaxsiy sifatlari kuzga tashlanadi. Ta’lim-tarbiya jarayonlarida inklyuziv ta’limda aqli zaif o‘quvchilarning shaxsini shaqllantirish uchun, uning faoliyat xususiyatlarini bilmok kerak. Chunki psixika faoliyatda kuzga tashlanibgina kolmasdan, balki faoliyat jarayonida shaqllanib xam boradi.

Shuning uchun ta’lim-tarbiyada inklyuziv ta’limda aqli zaif o‘quvchilar faoliyatini shunday tashkil kilish kerakki, ular psixikasining samarali rivojlanishiga imkon yaratsin. Inklyuziv ta’limda aqli zaif o‘quvchilarning faoliyatlarida maqsadga muvofiklikning buzilganligi, oldingi tajribalarni kullashdagi kiyinchiliklar, motivlarning notugriligi kabi nuqsonlarni kurish mumkin.

Bosh miya organik buzilishlari natijasida kelib chiquvchi aqliy nuqson bilan birga ma’lum analizatorlarning jarohatlanishi ham yuz berishi mumkin. Aqliy nuqson ko‘rish, eshitish, nutq va harakat tizimidagi nuqsonlar bilan birga keladi. Ba’zi hollarda aqliy nuqson markaziy falajlar bilan qo‘shilib ham kelishi mumkin. Buning sabablari turli-tuman, bo‘lishi mumkin. Organizmda modda almashinuvining buzilishi, rezus faktor, genetik nuqsonlar ham bunday turdagi oligofreniyaning kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Aqliy nuqson peshona qism kamchiliklari bilan birga kelganda bilish faoliyatining maqsadga muvofiqligi qo‘pol buzilgan bo‘ladi. Ayrimlarida passivlik, bo‘shanglik, so‘zsiz bo‘ysunish ko‘zga tashlansa, boshqalarida uyatsizlik, kayfiyatning sababsiz ustunligi, tez-tez diqqatning tarqalib turish hollari uchrashi mumkin. Bunday o‘quvchilar nutqi tashqi tomondan juda «boy», sermazmun bo‘lib tuyulsa-da, aslida ularga o‘zlarining gaplarini tushunmaslik, birovlarning fikrlarini qaytarish, o‘zlariga tanqiaiy qaramaslik xislatlari xosdir.

Salbiy ta’sirlarning o‘quvchi organizmiga ikki yoshidan keyingi ta’siridan kelib chiqadigan oligofreniya demensiya deb yuritiladi. Demensiyaning keltirib chiqargan sabablar, uning kechish xususiyatlari, asoratlariga qarab organik, epileptik va shizofrenik demensiya turlarga ajratiladi.

Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalrini amaliy maqsadda ikki guruhga bo‘lish mumkin.

Odam tevarak-atrofdagi dunyoni qanday idrok etadi, u qanday esida qoldiradi, qanday esga tushiradi va fikr yuritadi, u qanday hislarni ko‘nglidan kechiradi, odam tevarak-atrofdagi dunyoni o‘z ehtiyojlariga moslashtirib, yangi moddiy va ma’naviy boyliklarni vujudga keltirib, qanday ish ko‘radi - psixologiyani o‘rganish bilan ana shu masalalarni bilib olamiz.

Psixologiyani o‘rganish odamni psixika haqidagi va psixik hayotning xilma-xil hodisalari haqidagi bilimlar bilan boyitibgina qolmay, shu bilan birga odam aqlini ham o‘stirishga yordam beradi. Odam aqlini o‘stirish, jumladan, yangi bilimlar va ko‘nikmalarni tezroq egallash, yangi nazariy va amaliy vazifalarni to‘g‘ri hal qilish qobiliyatini takomillashtirishda, o‘z fikrlarini nutqda to‘g‘ri ifodalay bilish va boshqalarning nutqini to‘g‘ri tushuna bilishda ham o‘z ifodasini topadi. Albatta, har bir fan bilan shug‘ullanish odamni kamolga etkazadi. Ammo psixologiya bu sohada alohida o‘rin tutadi. Odam psixologiyani o‘rganar ekan, avvalo o‘z aql-idrokini, uning jarayonlarini bilib oladi, unga diqqat-e’tibor beradi, aqlning faoliyatini kuchaytiradigan shart-sharoitni bilib oladi va shu bilan o‘z aql-idrokining ko‘proq o‘rishiga yordam beradi.

Psixik hayot hodisalari haqidagi ilmiy bilimlarni egallash shaxs dunyoqarashini shakllanishida katta ahamiyatga egadir.

Tushunish kishilar ongidagi eskilik sarqitlariga qarshi kurashda, jumladan, har xil diniy taassub va xurofotlarga qarshi kurashda juda kuchli qurol bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Akramova X.S. Aqli zaif 4-5-sinf o‘quvchilarida mehnat ko‘nikmalarini shakllantirishda kompyuter dasturidan foydalanish texnologiyasi: Avtoref. diss. ped. fan. dok (PhD)... - T.: TDPU, 2020. —24 b.
2. Abu Ali Ibn Sino “Tib qonunlari” 3 jildlik saylanma xalq merosi, 2013
3. Amirsaldova Sh. M “Maxsus psixologiya” Toshkent 2019
4. Ahmetjonob E. R “Psixologiya testi”, M, 2016
5. Korreksion rivojlantiruvchi ta’lim – tarbiyaning mazmuni usullari va shakllari. (ilmiy metodik to‘plam) Toshkent – 2008.
6. Mo‘minova L. R. “O‘quvchilarni logopedik tekshirish va o‘qitish” Toshkent – 2012.
7. Maxsus ta’limning uzlusiz tizimi va mazmunini modernizatsiyalashtirish – defektologiyaning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy – amaliy anjumanining maqsadlar to‘plami. Toshkent 2011.
8. Mirzaev T, Sarimsoqov B, “O‘zbek xalq ertaklari” T ;2018y